

19 JUNE

2025



**ISOC**  
INTERNATIONAL  
SCIENTIFIC  
ONLINE  
CONFERENCES

zenodo OpenAIRE

doi digital object identifier  
OPEN ACCESS

INTERNATIONAL SCIENTIFIC ONLINE CONFERENCE

# BELARUS

INTERNATIONAL SCIENTIFIC  
RESEARCH CONFERENCE



info.interonconf@mail.ru

2025

www.interoncof.com



**ISOC**  
INTERNATIONAL  
SCIENTIFIC  
ONLINE  
CONFERENCES



**BELARUS** International scientific-online conference  
**“INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE”**

**Part 35**

**June 19<sup>th</sup>**

**COLLECTIONS OF SCIENT WORKS**

MINSK-2025



INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE: a collection of scientific works of the International scientific online conference (19<sup>th</sup> June, 2025) – BELARUS, MINSK : "CESS", 2025. Part 35 – 170 p.

**Chief editor:**

Candra Zonyfar - PhD Universitas Buana Perjuangan Karawang, Indonesia Sunmoon University, South Korea.

**Editorial board:**

Martha Merrill - PhD Kent State University, USA

David Pearce - ScD Washington, D.C., USA

Emma Sabzalieva - PhD Toronto, Canada

Languages of publication: русский, english, belorus казакша, о'zbek, limba română, кыргыз тили, Հայերեն....

The collection consists of scientific researches of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference.

"INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE". Which took place in MINSK on June 19<sup>th</sup>, 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

© "CESS", 2025  
© Authors, 2025



Table	
<b>Ibodova Mahfuza Namozovna</b> <i>EFFECTIVE ORGANIZATION OF BIOLOGY LESSONS THROUGH INTEGRATED EDUSATION IN ACADEMIC LYCEUMS</i>	7
<b>Бакирова Гулзар</b> <i>ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРОЕКТНОГО МЕТОДА ОБУЧЕНИЯ В ПРЕПОДАВАНИИ МАТЕМАТИКИ</i>	12
<b>Xasanova Marxabo Nosirovna</b> <i>GRAFIK TOPSHIRIQLARNING YAGONA ELEKTRON TIZIMI ASOSIDA O'QUV METODIK TA'MINOTNI TAKOMILLASHTIRISH: TAJRIBA-SINOV ISHLARI ASOSIDA TAHLIL</i>	16
<b>Э.К.Каримов</b> <i>МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ПЕСЧАННО- ПУСТЫННЫХ И СЕРО-БУРЫХ ПОЧВ БУХАРСКОГО ВИЛЮЯТА</i>	20
<b>Abdullayeva Gulchehra</b> <b>G.E.Abdiyeva</b> <i>O'ZBEK RAQS MAKTABLARI: TARIXIY ASOSLAR VA ZAMONAVIY RIVOJLANISH</i>	25
<b>Tuxtasinov Maqsadjon Murodjon o'g'li</b> <b>Abdinazarov Dilshodjon Toyir o'g'li</b> <i>ZAMONAVIY RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA AQLLI AVTOTURARGOH TIZIMINI LOYIHALASH</i>	27
<b>Azamat Axmatov Axtam o'g'li</b> <b>Xatamova Gulbahor</b> <i>"THE IMPORTANCE OF CONTEXTUAL GRAMMAR TEACHING IN THE MODERN CLASSROOM</i>	33
<b>Qodirova Mohinur Saydullo qizi</b> <i>HISTORY OF THE INTRODUCTION OF THE INSTRUCTION STRUCTURE</i>	37
<b>Azamat Axmatov Axtam o'g'li</b> <i>"INNOVATIVE TOOLS AND TECHNIQUES FOR TEACHING GRAMMAR IN THE DIGITAL AGE"</i>	41
<b>Abdreymov Yusupbay Turdibaevich</b> <b>Alauaddinova Albina</b> <i>ÓZBEKSTANDA QUYASH PANELLERIN ENGIZIW: IMKANIYATLAR HÁM MASHQALALAR</i>	45
<b>Turg'unova Nargiza Abdugapparovna</b> <i>O'ZBEKISTON IQLIM SHAROITIDA BIR YOSHGACHA BO'LGAN BOLALARNI OVQATLANISH JIHATLARI</i>	50
<b>Turg'unova Nargiza Abdugapparovna</b> <i>SHIFOBAXSH OCHIQISH: ILMIY ASOSLAR, TIBBIY FOYDASI VA ZAMONAVIY AMALIYOTLAR</i>	53
<b>Nilufar Usmanova</b>	57



<i>ZAMONAVIY MENEJMENT : RAQOBATBARDOSHLIK VA INNOVATSION BOSHQARUV ASOSLARI</i>	
<b>Durdona Murodova</b>	<b>63</b>
<i>SUN'YIY INTELLEKT VA EMOTSIONAL INTELLEKTNING BIRGALIKDA MENEJMENTGA TA'SIRI</i>	
<b>Arzimatova Iroda Aliyevna</b>	<b>69</b>
<i>DAVLAT BUDJETI IJROSINI TASHKIL ETISH</i>	
<b>Jumayev U.G'</b>	<b>76</b>
<i>GMONI OZIQ OVQAT MAHSULOTLARI TARKIBIGA KIRISHI VA INSON SOG'LIGIGA TA'SIRI</i>	
<b>Jumayev U.G'</b>	<b>80</b>
<i>NOANANAVIY URUG'LARDAN MOY OLIQ VA TAYYORLANGAN YOG'NING INSON SOG'LIGIGA TA'SIRI</i>	
<b>Sobirova Mohijahonbegim Sarvarmurodxo'ja qizi</b>	<b>85</b>
<i>KOREYS TILI BILIM DARAJASINI BAHOLOVCHI TOPIK II IMTIHONING "YOZISH" BO'LIMIGA OID TADQIQOTLAR TAHLILI</i>	
<b>Kuziev Shavkat Abdumuratovich</b>	<b>91</b>
<b>Juraev Ilkhom Bakhriddin ugli</b>	
<i>THE HISTORICAL DEVELOPMENT OF ENGLISH LANGUAGE TEACHING IN SYRDARYA REGION</i>	
<b>Utegenova Dilnoza Aygali qizi</b>	<b>94</b>
<i>BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING NUTQ SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MULTIMEDIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH</i>	
<b>Аширова Ойдин Рашид кизи</b>	<b>99</b>
<b>Нуржонова Шоира Хамдамовна,</b>	
<i>ВЛИЯНИЕ ПСИХОЛОГИИ НА ОБЕСПЕЧЕНИЕ ЛИЧНОСТНОГО РОСТА СТУДЕНТОВ</i>	
<b>Damir Dawilbaev</b>	<b>102</b>
<b>M.Xojanova</b>	
<i>KISHI DRAMALIQ JANRLAR HAM OLARDIN TEORIYALIQ OZGESHELIKLARI</i>	
<b>Kamalova Gulzada</b>	<b>105</b>
<i>PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF GAMIFICATION IN EDUCATION</i>	
<b>Aripova Kamola Botir qizi</b>	<b>110</b>
<i>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLINI IJTIMOYIY HIMOYA QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI</i>	
<b>Odiljonova Oybachin Fayzullo qizi</b>	<b>114</b>
<i>MOLIYAVIY AKTIVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI</i>	
<b>Fayziyeva Feruza Ibodullayevna</b>	<b>119</b>
<i>KOREYS TILIDA TO'G'RI TALAFFUZ QILISHNING MUHIMLIGI VA TALAFFUZDAGI MUAMMOLAR</i>	



<b>Nabiyeva Gulhayo Narzillo qizi</b> <i>SKALAR VA VEKTORLAR</i>	<b>124</b>
<b>Artikov Azamatjon Xolmurodovich</b> <b>Sadilloyeva Gulzoda Baxtiyor qizi</b> <i>ЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЕ АЛЛЮЗИЙ В СОВРЕМЕННОЙ БРИТАНСКОЙ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ПРОЗЕ</i>	<b>126</b>
<b>Safarova Mahfuza Rajabovna</b> <i>MORPHOLOGICAL FEATURES OF ENGLISH-LANGUAGE PARTHONYMS</i>	<b>131</b>
<b>Шамуратов Амирхон Кахрамонович</b> <i>МИРОВОЙ ОПЫТ РОБОТИЗАЦИИ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ</i>	<b>135</b>
<b>Ne'matova Diyora G'ayratjon qizi</b> <i>PAROKSIZMALSUPRAVENTRIKULYARTAXIKARDIYA: KLINIKYONDOSHUVVARADIOCHASTOTALIABLATSIYANINGO'RNI.</i>	<b>146</b>
<b>A.Sobirov</b> <i>FARG'ONA VODIYSI MADANIY MEROSINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QAYTA KASHF ETISH: GLOBAL TRENDLAR VA MAHALLIY INNOVATSIYALAR.</i>	<b>152</b>
<b>Xasanov Adxam Amankulovich</b> <b>Xojimuratova Xilola Baxodirovna</b> <i>MOLIBDENNING SANOATDAGI AHAMIYATI</i>	<b>158</b>
<b>Yursunov R.Sh</b> <b>Abdulazizov.M</b> <i>AVTOMOBILLARNING DUMALASH PODSHIPNIKLARINING SHARTLI BELGILANISHI</i>	<b>161</b>
<b>Dauletmuratova Gulistan Abatovna</b> <i>FUNKSIYA VA FUNKSIYANING BERILISH USULLARI</i>	<b>167</b>



## KOREYS TILI BILIM DARAJASINI BAHOLOVCHI TOPIK II IMTIHONING “YOZISH” BO‘LIMIGA OID TADQIQOTLAR TAHLILI

Sobirova Mohijahonbegim Sarvarmurodxo‘ja qizi  
*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*  
*Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti*  
*Koreyashunoslik oliy maktabi*

Hozirgi globallashuv jarayonida chet tillarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish hamda talab kundan kunga oshib bormoqda. O‘z o‘rnida uzoq sharq tillaridan bo‘lmish koreys tiliga bo‘lgan e‘tibor ham kun sayin o‘smoqda. Koreys tiliga qiziqish oshgani sayin u borasida bilimlarini tekshirish uchun TOPIK imtihoniga bo‘lgan talab ham kuchayib bormoqda. Birgina O‘zbekistonni misol qilib olinadigan bo‘lsa, 2023-yilga qadar O‘zbekistonning ikki hududida o‘tkaziladigan TOPIK imtihoni 2023-yilga kelib Toshkent, Samarqand, Urganch, Farg‘ona, Namangan hamda Buxoro<sup>8</sup> bo‘lmish olti hududida o‘tkazildi. Imtihan topshiruvchilar soni ham o‘tkan yilga nisbatan ikki-uch barobar oshirilganini ko‘rish mumkin.

Imtihonning o‘ziga keladigan bo‘lsak, TOPIK II imtihoni uch bo‘limdan tashkil topgan bo‘lib, ular quyidagilardir<sup>9</sup>:

- Eshitish (듣기)
- Yozish (쓰기)
- O‘qish (읽기)

Mazkur uch bo‘limdan yuqoridagi ketma-ketlik bo‘yicha imtihan topshiriladi. Imtihonning “*Eshitish*” (듣기) bo‘limi, ellikta savoldan tashkil topgan bo‘lib, har bir savolga ikki balldan baho qo‘yiladi. “*Yozish*” (쓰기) bo‘limi esa, eshitishdan so‘ng boshlanadigan bo‘lib, 51, 52, 53, 54-savollar ushbu bo‘limga oid. Yakunda “*O‘qish*” (읽기) bo‘limidan savollar beriladigan bo‘lib, savol qiymati eshitish bilan bir xil elliktani tashkil qiladi<sup>10</sup>.

Yuqoridagi bo‘limlar orasidan imtihan topshiruvchilar uchun ma‘lum darajada qiyinlik qiladigan bo‘lim imtihonning ikkinchi qismi bo‘lgan, “*Yozish*” (쓰기) bo‘limidir. “*Yozish*” bo‘limidan yuqori ball olishga erishgan imtihan topshiruvchi ko‘p hollarda C1 (5 geub) yoki C2 (6 geub)ni qo‘lga kiritadi. Chunki, “*Yozish*” bo‘limi boshqa bo‘limlar orasida savollari eng kamligi va

<sup>8</sup> Topiktashkec: <https://topiktashkec.uz>

<sup>9</sup> 정은화. 한국어능력시험 토픽 쓰기. - 서울: (주)시대고시기획, 2021. - P. 8.

<sup>10</sup> 박미경, 권재은. TOPIK 쓰기의 모든 것. - 서울: (주)박이정, 2019. - P. 16.



savollar soniga nisbatan ball miqdorining ko'pligi bilan ajralib turadi. "Yozish" bo'limiga beriladigan umumiy ball, 100 ball bo'lib, bu bo'limda mavjud bo'lgan 51 va 52-savollariga 10 ball, 53-savoliga 30 ball, 54-savoliga esa 50 ball beriladi. Mazkur savollarda berilgan topshiriqlar quyidagicha<sup>11</sup>:

1. 51-topshiriq "Amaliy matn, bo'sh joylarni to'ldirish";
2. 52-topshiriq "Tasviriy matn, bo'sh joylarni to'ldirish";
3. 53-topshiriq "Berilgan ma'lumotni tahlil qilib (300-400 bo'g'in) insho yozish";
4. 54-topshiriq "Berilgan mavzu bo'yicha erkin yozish (600-700 bo'g'in)".

"Yozish" bo'limida imtihon topshiruvchilar duch keladigan qiyinchiliklar sababini topish uchun, shu bilan birga, bu bo'limdagi savollarning tuzilishini, baholash mezonini qanday ekanligini, imtihon topshiruvchilar qiladigan xatolar, ularni bartaraf etish usullarini o'rganish uchun koreys tadqiqotchilari mazkur mavzu bo'yicha o'z tadqiqotlarini olib borishgan. "Yozish" bo'limiga oid tadqiqotlarni o'rganish chog'ida, ularni ikki davrga bo'lish kerak ekanligi ma'lum bo'ladi. Bu davrlar:

1. 1997-yildan 2014-yilgacha olib borilgan tadqiqotlar;
2. 2014-yildan hozirgi kungacha olib borilgan tadqiqotlar.

Bunday davrlashtirishning asosiy sababi shundaki, TOPIK imtihonida bu yillar orasida ma'lum bir o'zgarishlar bo'lgan. Ya'ni 1997-yildan 2014-yilgacha bo'lgan davrda test to'rt qismga bo'lingan. Bular: lug'at va grammatika, yozish, tinglash, o'qishdir. Testning ikki turi mavjud bo'lib, standart (S)-TOPIK va biznes (B)-TOPIK. S-TOPIK uch xil darajaga bo'linib, bular: boshlang'ich (1-2 daraja), o'rta (3-4 daraja), yuqori (5-6 daraja)dir<sup>12</sup>.

2014-yilning 20-iyul 35-imtihondan<sup>13</sup> esa TOPIKga o'zgartirish kiritildi. Ya'ni, endilikda u ikki xil darajaga bo'lindi. TOPIK I (boshlang'ich, 1,2-daraja), TOPIK II (o'rta va yuqori, 3,4,5,6-darajalar). Yana bir muhim o'zgarish shunda ediki, eski to'rt qismdan tashkil topgan test o'rniga, TOPIK I da faqat o'qish hamda tinglash imtihoni bo'ladigan bo'lgan. TOPIK II esa, tinglash, yozish, o'qish bo'limlaridan iborat bo'ldi.

Yuqoridagi o'zgarish sababli, ikki davrga oid tadqiqotlar orasida ma'lum bir tafovut, farqlar sezila boshladi. Ya'ni davrga qarab tadqiqot o'rganish obyekti o'zgardi. Chunki, bu ikki davrda "Yozish" bo'limidagi savollarning ham, ularga beriladigan javoblarning ham shakli va mazmuni takomillashib bordi. Mazkur ikki davr orasida ushbu maqolada birinchi davrga mansub bo'lgan tadqiqotchilarning tadqiqotlari va natijalarini atroflicha ko'rib o'tamiz.

<sup>11</sup> 마광홍, 한국어능력시험 (TOPIK)II 54번 답안쓰기에 나타난 오류 양상 연구. - 서울: 국내석사학위논문, 2019. - P. 14.

<sup>12</sup> 한강우, 한국어능력시험 쓰기 영역 54번 문항 답안 작성 방안 연구. - 부산: 문화교류와 다문화교육, 2022. - P. 202.

<sup>13</sup> Topikguide: <https://www.topikguide.com/category/updates/page/3/>



Tadqiqotchilardan: Kim Jong Suk (김정숙<sup>14</sup>), Kim In Xi (김은희<sup>15</sup>), Chang Su (장수<sup>16</sup>), Kim Von Kyong (김원경<sup>17</sup>), Xyon Bin (현빈<sup>18</sup>) hamda Chve Je Chan (최젯찬)larni sanab o'tsa bo'ladi<sup>19</sup>.

Kim Jong Suk (김정숙<sup>20</sup>) o'z tadqiqot ishida ma'lum bir esseni yozish, bu butun bir strategik harakatlardan tashkil topgan jarayon ekanligini ta'kidlab o'tadi. Ya'ni, esse yozuvchi ma'lum bir vaziyat haqidagi savolni o'qib, unga javob berish uchun essening mazmuni hamda tuzilishini rejalashtiradi. Kim Jong Suk, o'z ilmiy ishi natijasiga ko'ra, esse hamda turli xildagi matnlar yozishni bilim oluvchilarga o'rgatish uchun ma'lum bir metodologik ta'lim tizimini tuzib chiqadi. Uning fikriga ko'ra esse yozishni o'rganish oz muddat davomida erishiladigan bilim emas. Esse va turli xildagi matnlarni yozish ham ma'lum bir ma'noda odamlar o'rtasidagi kommunikatsiyaning bir turi ekanligini, va shu bilan birga, unga doir bilimni boshlang'ich darajadan yuqori darajagacha berib borish darkor ekanligini aytib o'tadi.

Kim In Xi (김은희<sup>21</sup>) o'z ilmiy tadqiqot ishida aynan TOPIK imtihoni topshiruvchilar orasida yuqori daraja olish uchun imtixon topshirayotgalarga o'z e'tiborini qaratadi. U, TOPIK imtihonida yuqori daraja olishda katta ko'mak bo'luvchi “Yozish” bo'limi borasida tadqiqot olib borib, yozish bo'limida beriladigan savollarga qay tarzda javob berish kerakligi haqida o'z fikrlarini bildiradi. U o'z tadqiqotida TOPIKning o'n yettinchi imtihonidan boshlab yigirma oltinchi imtihonigacha bo'lgan qismini yig'ib olib, imtihonlardagi aynan 45-savol turini ko'rib chiqadi.

Kim In Xi o'zining mazkur ilmiy ishida yuqori daraja olish uchun imtixon topshiruvchilarga esseni qay tarzda yozishning xaritasini tuzib beradi. U quyidagi qadamlarni sanab o'tadi:

1. Berilgan savol ichidan mavzuni topish<sup>22</sup>;
2. Fikr yuritish orqali ongdagi asosiy bilimlarni faollashtirish;
3. Mavzuga ko'ra shartlarni aniqlab olish;

<sup>14</sup> 김정숙. 답화 능력 배양을 위한 외국어로서 한국어 쓰기 교육 방안 연구. - 한국어교육: 국제한국어교육학회, 1999. - 195-213 p.

<sup>15</sup> 김은희. 한국어능력시험 고급 단계 학습자를 위한 쓰기 지도 방안. - 전남대학교, 2012. - 387-406 p.

<sup>16</sup> 장수. 한국어 능력시험 응시자를 위한 고급 쓰기 교육 방안. - 부산: 국내석사학위논문 부산외국어대학교 일반대학원, 2013. - 84 p.

<sup>17</sup> 김원경. 한국어교육을 위한 과정 중심 쓰기 평가 모형 연구. - 경기도: 국내박사학위논문 가톨릭대학교 대학원, 2016. - 104 p.

<sup>18</sup> 현빈, 최재찬. 제4분과 : 개인발표3 ; 평가 기준 상세화가 쓰기 성취도 향상에 미치는 영향 - 한국어능력시험II 쓰기 영역 자유 작문 문항을 대상으로. - 국제한국어교육학회 학술대회논문집, 2014. - 252-263 p.

<sup>19</sup> 장주천. 토픽II 쓰기 53번 문항의 교육 내용 연구. - 서울: 동국대학교, 2020. - P. 2.

<sup>20</sup> 김정숙. 답화 능력 배양을 위한 외국어로서 한국어 쓰기 교육 방안 연구. - 한국어교육: 국제한국어교육학회, 1999. - P. 195.

<sup>21</sup> 김은희. 한국어능력시험 고급 단계 학습자를 위한 쓰기 지도 방안. - 전남대학교, 2013. - P. 8.

<sup>22</sup> 김은희. 한국어능력시험 고급 단계 학습자를 위한 쓰기 지도 방안. - 전남대학교, 2013. - P. 11.



4. Mavzu va aniqlangan shartlarga ko‘ra inshoni belgilangan vaqt chegarasida yozish;

5. Tugallangan inshoni qayta o‘qib, ko‘zdan kechirish.

Kim In Xining “읽기-쓰기 통합 수업에서 학습자 글쓰기에 나타난 상호텍스트의 실현 양상 연구” (*“Integratsiyalashgan o‘qish – yozish darslarida o‘quvchilarning yozishlarida intertekstni amalga oshirishga doir tadqiqot”*) nomli tadqiqot ishi ham TOPIK imtihoning “O‘qish” hamda “Yozish” bo‘limlariga bag‘ishlangan. Mazkur ilmiy ishida muallif o‘z e‘tiborini o‘qish va yozish bo‘limlari orasidagi aloqaga qaratadi<sup>23</sup>. Uning fikriga ko‘ra, imtihon topshiruvchi esse yozish davrida nafaqat o‘zi bilgan, o‘rgangan bilimlaridan foydalangan holda esse yozadi, balki, o‘zgalardan eshitgan, ko‘rgan narsalaridan ham foydalanadi. Esseda faqatgina esse yozuvchining fikri bo‘lmaydi. O‘z fikri bilan boshqa shaxslardan olgan fikrlari ham aralash holatda bo‘ladi. Bu ikki holat esa esse yozuvchining dunyo qarashini belgilaydi. Kim In Xi esse yozuvchining dunyo qarashini oshirish uchun o‘zgalardan eshitgan bilimlarini oshirish kerak ekanligini tavsiya qiladi. Ya‘ni, imtihon topshiruvchilarga turli xil mavzudagi matnlar berish orqali, ularning dunyo qarashini boyitishga erishadi.

Chang Su (장수<sup>24</sup>) esa, TOPIKning maxsus yig‘ma testlardan foydalangan holda, imtihon topshiruvchilar yozgan asl nusxadagi esselarni tadqiq qilib, ular qiyinchilik sezgan qismlar qayerda ekanligini aniqladi. Bu tadqiqot natijasiga ko‘ra esse yozuvchilarning ko‘p vaziyatlarda so‘z va grammatik zaxirasi yetishmasligi aniqlandi<sup>25</sup>. Bir guruh imtihon topshiruvchilar esa, esse matnining butun bir ma‘nosiga e‘tibor bermasdan faqatgina ma‘lum bir so‘z va iboralarga e‘tiborini qaratishi ma‘lum bo‘ldi. Chang Su ham, Kim In Xi kabi, yozish bo‘limida yuqori ballni qo‘lga kiritish uchun, o‘qish bo‘limiga oid bilimlarni mustahkamlash kerak ekanligini ta‘kidlab o‘tgan. U mazkur ikki bo‘limga oid bilimlarni birgalikda olib ketilsa, ikki bo‘limdan ham yuqori ball olish mumkin ekanligini aytib o‘tadi.

Kim Von Kyong (김원경<sup>26</sup>) o‘z tadqiqotida, “Yozish” bo‘limi imtihon topshiruvchining nafaqat o‘z bilimini, balki, yana qo‘shimcha bilimlar (har xil mavzularga oid dunyo qarash)ni talab qilgani bois, talabgorning koreys tili ko‘nikmalarini baholashga to‘g‘iri kelmasligini aytib o‘tgan. Bu borada, “Yozish” bo‘limidagi savollarni qayta ko‘rib chiqish taklifini kiritgan. U o‘z tadqiqot ishida quyidagi savollarga javob topishga harakat qilgan;

<sup>23</sup> 김은희. 읽기-쓰기 통합 수업에서 학습자 글쓰기에 나타난 상호텍스트의 실현 양상 연구. - 한국언어문화학, 2014. - P. 3.

<sup>24</sup> 장수. 한국어 능력시험 응시자를 위한 고급 쓰기 교육 방안. - 부산: 국내석사학위논문 부산외국어대학교 일반대학원, 2013. - 84 p.

<sup>25</sup> 장수. 한국어 능력시험 응시자를 위한 고급 쓰기 교육 방안. - 부산: 국내석사학위논문 부산외국어대학교 일반대학원, 2013. - P. 67.



1. "Yozish" bo'limiga oid ta'lim bilan uni baholashning bir-biridan ajratishdagi muammoga qanday yechim bor<sup>27</sup>?
2. "Yozish" bo'limi uchun qo'yiladigan baho, bilim oluvchining bilimlarni o'sishiga yordam beradimi?
3. "Yozish" bo'limi uchun qo'yiladigan baholar haqiqatdan ham obyektiv tarzda qo'yiladimi?

Mazkur tadqiqotning o'ziga xos jihati Kim Von Kyong nafaqat imtihon topshiruvchilar haqida tadqiqot olib bordi. Balki, imtihondan avval, darslarda insho yozishni o'rgatishdagi muammolarni o'rganib chiqdi. Hamda muammolarga yechimlar bera oldi.

Navbatdagi tadqiqotchilar Xyon Bin (현빈) hamda Chve Je Chan (최재찬) bo'lib<sup>28</sup>, ular tadqiqot davomida TOPIKning "Yozish" bo'limidagi aynan erkin yozish qismi borasida izlanishlar olib borgan bo'lib, esse yozuvchi esseni yozishidan avval baholash mezonini haqida ma'lumotga ega bo'lishi yoki, aksincha, ega emasligi kabi ikki holatni solishtirganlar. Bu tajribadan asosiy maqsad, baholash qay darajada esse yozuvchining muvaffaqiyatiga ta'sir qilishini bilishdan iborat edi. Tajriba natijasiga ko'ra, esse yozishdan avval baholash mezonini bilgan imtihon topshiruvchilar bilan bilmaganlarning yozgan esselari tekshirilganda, ikki guruh baholari orasidagi farq juda katta bo'lgan. Ya'ni imtihondan oldin baholash mezonini bilan tanishgan guruh vakillari inshoni baholash mezoniga rioya qilgan holda yanada yahshiroq yozgan ekanligi isbotlandi.

Mazkur maqolada Koreys tili bilim darajasini baholovchi TOPIK II imtihonining "Yozish" bo'limiga oid mavjud ilmiy izlanishlar tahlil qilindi. Globallashuv sharoitida chet tillarini, xususan, koreys tilini o'rganishga qiziqish ortib borayotgan bir paytda, TOPIK imtihonining yozish bo'limi o'rganish va baholash jarayonida markaziy ahamiyatga ega ekani aniqlandi.

"Yozish" bo'limi imtihon topshiruvchilar uchun eng murakkab va yuqori ball olishda kalit rol o'ynovchi qism bo'lib, uning savollari tarkibi, baholash mezonlari hamda imtihon topshiruvchilar duch keladigan qiyinchiliklar haqida batafsil tahlillar o'tkazildi. Tadqiqotlar ikki davrga bo'lingan — 1997-2014 va 2014-yildan hozirgi kungacha — va har bir davrda "Yozish" bo'limining o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanish tendensiyalari aniqlandi.

Birinchi davr tadqiqotchilari yozish jarayonini strategik va bosqichma-bosqich rejalashtirish muhimligini, yozish malakasini bosqichma-bosqich o'rgatish zarurligini ta'kidlagan.

<sup>26</sup> 김원경. 한국어교육을 위한 과정 중심 쓰기 평가 모형 연구. - 경기도: 국내박사학위논문 가톨릭대학교 대학원, 2016. - 104 p.

<sup>27</sup> 김원경. 한국어교육을 위한 과정 중심 쓰기 평가 모형 연구. - 경기도: 국내박사학위논문 가톨릭대학교 대학원, 2016. - P. 12.

<sup>28</sup> 현빈, 최재찬. 제4분과 : 개인발표3 ; 평가 기준 상세화가 쓰기 성취도 향상에 미치는 영향 - 한국어능력시험II 쓰기 영역 자유 작문 문항을 대상으로. - 국제한국어교육학회 학술대회논문집, 2014. - P. 260.



Shuningdek, "Yozish" bo'limida muvaffaqiyatga erishish uchun o'qish bo'limidagi bilimlarni mustahkamlash, yozish jarayonini baholash mezonlari bilan oldindan tanishish hamda yozish ko'nikmalarini keng qamrovda rivojlantirish muhimligi qayd etildi. Bu esa o'quvchilarni yuqori darajadagi TOPIK ballariga erishishda yordam beradi.

Umuman olganda, TOPIK II imtihonining yozish bo'limi koreys tilini chuqur va amaliy darajada o'rganish uchun muhim mezon bo'lib, ushbu bo'limni takomillashtirish, uni baholash va o'rgatish metodikasini yanada rivojlantirish koreys tili ta'limining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 박미경, 권제은. 토픽54번쓰기의모든것. – 서울: (주)박이정, 2022. – 197 p.
2. 박미경, 권제은. TOPIK 쓰기의 모든 것. – 서울: (주)박이정, 2019. – 299 p.
3. 정은화. 한국어능력시험 토픽 쓰기. – 서울: (주)시대고시기획, 2021. – 232 p.
4. 현빈, 최재찬. 핫토픽해설집. – 서울: 한글파크, 2016. – 255 p.
5. 김원경. 한국어교육을위한과정중심쓰기평가모형연구: 교육학박사학위논문 – 경기도: 가톨릭대학교대학원, 2016. – 104 p.
6. 마광홍. 한국어능력시험 (TOPIK)II 54 번 답안쓰기에 나타난 오류 양상 연구: 국내석사학위논문 – 서울: 中央大學校, 2019. – 79 p.
7. 장수. 한국어 능력시험 응시자를 위한 고급 쓰기 교육 방안: 국내석사학위논문. – 부산: 부산외국어대학교일반대학원, 2013. – 84 p.
8. 장주천. 토픽II 쓰기 53 번 문항의 교육 내용 연구: 석사학위논문. – 서울: 동국대학교, 2020. – 97 p.
9. 김은희. 한국어능력시험 고급 단계 학습자를 위한 쓰기 지도 방안 // 국어교과교육연구. 전남대학교. – 2012. – № 2 (21). – 387- 406 p.
10. 김정숙. 담화 능력 배양을 위한 외국어로서 한국어 쓰기 교육 방안 연구 //한국어교육국제한국어교육학회. – 1999. – 195-213 p.
11. 한강우. 한국어능력시험 쓰기 영역 54번 문항 답안 작성 방안 연구: // 문화교류와 다문화교육. – 2022. – 제11 권제4호. – 201- 233 p.
12. <https://www.topikguide.com/category/updates/page/3/>
13. <https://www.topikguide.com/topik-overview/>

BELARUS, MINSK

# CERTIFICATE

of conference participant

**Sobirova Mohijahonbegim Sarvarmurodxo'ja qizi**

for participation in the scientific-online conference  
«INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH  
CONFERENCE» with an article entitled  
KOREYS TILI BILIM DARAJASINI BAHOLOVCHI TOPIK II IMTIHONING  
"YOZISH" BO'LIMIGA OID TADQIQOTLAR TAHLILI



Platform &  
workflow by  
OJS / PKP



19.06.2025

Candra Zonyfa  
CHIEF EDITOR



ISOC  
INTERNATIONAL  
SCIENTIFIC  
ONLINE  
CONFERENCES

